DO‘KONLAR UCHUN TIZIM

Hamkorlik tartibi

Telegram bot, Mini App, veb-sayt va admin panel — bitta tizim. Bu hujjatda nima olasiz, qanday ishlaymiz va shartnomada nimalar kelishilishi yozilgan.

Bitta buyurtmaning yo‘li

1. Xaridor Telegram bot yoki saytda katalogni ochadi va mahsulotni tanlaydi.
2. Telefon raqami va manzilini yuboradi — buyurtma rasmiylashtiriladi.
3. Buyurtma o‘sha zahoti Telegram guruhingizga keladi va admin panelga yoziladi.
4. Siz holatni o‘zgartirasiz — xaridorga bot o‘zi xabar beradi.

✓ Favzon Perfumes do‘koni shu tizimda ishlaydi.

Paketlar va narxlar

Narxlar — boshlang‘ich. Aniq summa va muddat brifdan keyin tijorat taklifida yoziladi.

PAKET	ICHIDA	MUDDAT	NARX
Start	Telegram bot va Mini App katalog. Buyurtmalar Telegram guruhga va admin panelga tushadi. Do‘kon nomi, logo va ranglar — sizniki.	5–7 ish kuni	**7 mln so‘mdan**
Do‘kon	Start + o‘z domeningizdagi veb-sayt, to‘liq admin panel (mahsulotlar, buyurtmalar, holatlar, mijozlar), xaridorga avtomatik xabarlar, Click va Payme.	10–15 ish kuni	**17 mln so‘mdan**
Brend	Do‘kon + sayt va Mini App uchun brendingizga mos alohida dizayn.	15–20 ish kuni	**25 mln so‘mdan**
Ombor integratsiyasi	Qo‘shimcha. MoySklad yoki Billz: qoldiq va narxlar avtomatik yangilanadi, buyurtma hisobga o‘zi tushadi. 1C — qisqa auditdan keyin.	+5–10 ish kuni	**6 mln so‘mdan**

Narxga kiradi

- ✓ Sozlash va ishga tushirish: domen, bot va server sizning nomingizga ochiladi
- ✓ Kod va barcha kirish huquqlarini topshirish
- ✓ 1 yil kafolat: xatolarni bepul tuzatamiz
- ✓ Katalogni jadvalingizdan bir marta yuklash
- ✓ Admin panel bo‘yicha 1 soatlik o‘rgatish

Alohida to‘lanadi

- \+ Server va domen — to‘g‘ridan-to‘g‘ri provayderga, sizning hisobingizdan
- \+ Click va Payme komissiyasi — ular bilan shartnomangiz bo‘yicha
- \+ Yangi funksiyalar, dizayn va matn o‘zgarishlari
- \+ Mahsulot rasmlari va tavsiflarini tayyorlash

Tanishuvdan kafolatgacha to‘qqiz qadam

Har qadamda nima olishingiz va sizdan nima kerakligi oldindan ma‘lum.

#	ISH BOSQICHLARI	NATIJA	SIZDAN
01	**Tanishuv va demo** 15–30 daqiqalik suhbatda tizimni jonli ko‘rsatamiz va do‘koningiz qanday ishlashini tushunib olamiz.	Qaysi paket mos kelishi haqida aniq javob	Nima sotishingiz va buyurtmalar qayerdan kelishi
02	**Brif** Mahsulotlar soni, to‘lov va yetkazish shartlari, kerakli integratsiyalar bo‘yicha qisqa so‘rovnoma.	Aniq ish hajmi	Brifga javoblar (15 daqiqa)
03	**Tijorat taklifi** Brifdan keyin 24 soat ichida yuboramiz.	Narx, muddat, nima kiradi va nima kirmaydi	Taklif bo‘yicha qaror
04	**Shartnoma va avans** Shartnoma imzolanadi. Ilovasida — texnik topshiriq.	Imzolangan shartnoma va ish jadvali	50% avans
05	**Materiallar** Logo, ranglar, mahsulotlar jadvali, yetkazish va to‘lov shartlari. Muddat materiallar to‘liq kelgan kundan sanaladi.	Ish boshlanadi, sanalar belgilanadi	Quyidagi ro‘yxatdagi materiallar
06	**Yig‘ish** Tizimni sinov manzilida yig‘amiz. Brend paketida avval dizayn tasdiqlanadi.	Oraliq natija va sinov havolasi	Dizayn va oraliq natija bo‘yicha fikr
07	**Ko‘rsatish va tuzatish** Tayyor tizimni ko‘rsatamiz. Izohlaringiz bitta ro‘yxatda yig‘iladi va tuzatiladi.	Tuzatilgan, ishga tayyor versiya	Bitta jamlangan izohlar ro‘yxati
08	**Ishga tushirish va topshirish** Domen, bot va to‘lov tizimi ulanadi. Admin panel bo‘yicha o‘rgatish o‘tkazamiz.	Ishlayotgan do‘kon, kod, kirish huquqlari va dalolatnoma	Qolgan 50% to‘lov
09	**Kafolat** 12 oy davomida xatolarni bepul tuzatamiz. Yangi ishlar alohida kelishiladi.	Belgilangan muddatda javob va tuzatish	Xato haqida skrinshot yoki qisqa izoh

Sizdan kerak bo‘ladigan narsalar

Ro‘yxat to‘liq bo‘lsa, ish kechikmaydi. Click va Payme hujjatlari ulanishga vaqt oladi, shuning uchun ularni birinchi kundanoq boshlaymiz.

- [ ] Logo (SVG yoki sifatli PNG) va brend ranglari
- [ ] Yetkazish shartlari: hududlar, narx va muddat
- [ ] Domen (bo‘lmasa, sizning nomingizga birga olamiz)
- [ ] Mahsulotlar jadvali: nomi, narxi, tavsifi, kategoriyasi va rasmi (Excel shablonini beramiz)
- [ ] To‘lov usullari; Click va Payme uchun — YaTT yoki MChJ hujjatlari va bank rekvizitlari
- [ ] Telegram akkaunt — bot shu akkauntga o‘tkaziladi

- [ ] Ombor integratsiyasi uchun: MoySklad yoki Billz kirish kaliti (API), 1C bo‘lsa — dasturchingiz bilan aloqa
- [ ] Siz tomondan bitta mas’ul shaxs

Shartnomaning asosiy shartlari

Quyidagilar shartnomada yoziladi. Ish hajmi shartnoma ilovasi — texnik topshiriqda batafsil ko‘rsatiladi.

Ish hajmi

Nima qilinishi texnik topshiriqda yoziladi. Unda yo‘q ish — qo‘shimcha ish, u alohida kelishiladi.

Muddat

Materiallar to‘liq kelgan kundan sanaladi. Material, tasdiq yoki hujjat kechiksa, muddat shuncha suriladi.

To‘lov

50% — shartnoma imzolangach, 50% — ishga tushirilib, dalolatnoma imzolanganda. Ombor integratsiyasi alohida bosqich sifatida shu tartibda to‘lanadi. To‘lov usuli shartnomada belgilanadi.

Qabul qilish

Ishga tushgandan keyin 3 ish kuni ichida tekshirasiz. Izoh bo‘lsa, ro‘yxat bilan yuborasiz va tuzatamiz. Shu muddatda izoh kelmasa, ish qabul qilingan hisoblanadi.

Tuzatishlar

Bitta jamlangan tuzatish davrasi narxga kiradi. Keyingi o‘zgarishlar yangi ish sifatida baholanadi.

Yangi ishlar

Kafolat davrida ham, undan keyin ham yangi funksiya va o‘zgarishlar alohida baho bilan bajariladi: kichik ishlar soatbay, kattalari — alohida taklif bilan.

Kod va huquqlar

To‘liq to‘lovdan keyin do‘koningiz kodi va barcha kirish huquqlari (server, domen, bot, to‘lov hisoblari) sizga topshiriladi. Ularni cheklovsiz ishlatishingiz, o‘zgartirishingiz va boshqa dasturchiga berishingiz mumkin. VOSIQ umumiy texnik asos va komponentlarni boshqa loyihalarda ishlatish huquqini saqlab qoladi; sizning brendingiz, siz uchun tayyorlangan dizayn, kontent va ma’lumotlar boshqa joyda ishlatilmaydi.

Kafolat — 1 yil

Ishga tushgan kundan 12 oy davomida xatolarni bepul tuzatamiz. Xato — tizim texnik topshiriqda yozilganidek ishlamasligi. Jiddiy nosozlik (buyurtma tushmayapti, sayt yoki bot ishlamayapti) bo‘lsa, ish vaqtida 4 soat ichida ishga kirishamiz; boshqa xatolar 3 ish kuni ichida tuzatiladi.

Kafolatga kirmaydi:

- yangi funksiya, dizayn yoki matn o‘zgarishi;
- kodni boshqa dasturchi o‘zgartirgan qismlar;
- Telegram, Click, Payme yoki ombor tizimi o‘z qoidasini o‘zgartirgani uchun moslash (texnik xizmatda kiradi);
- server, domen va tashqi xizmatlar to‘lovi.

Ma’lumotlar va maxfiylik

Xaridorlaringiz ma’lumotlari sizniki. Biz ulardan faqat tizimni sozlash va qo‘llab-quvvatlash uchun foydalanamiz va uchinchi shaxslarga bermaymiz. Server joylashuvi shartnomada yoziladi va O‘zbekiston qonunchiligi talablariga mos tanlanadi.

Bekor qilish

Ish boshlangach shartnoma bekor qilinsa, bajarilgan qism uchun haq avansdan ushlab qolinadi, tayyor qism topshiriladi, qolgan summa qaytariladi.

Nizolar

Kelishmovchilik avval muzokara yo‘li bilan hal qilinadi, kelishilmasa — O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq.

Texnik xizmat IXTIYORIY

Kafolat birinchi yil xatolarni qoplaydi. Texnik xizmat esa tizimni kuzatib, tashqi o‘zgarishlarga moslab boradi — biri ikkinchisining o‘rnini bosmaydi.

500 ming so‘m/oydan

- Server va domen ishlashini kuzatish, zaxira nusxalar
- Telegram, Click, Payme va ombor tizimi o‘zgarishlariga moslash
- Oyiga 2 soatgacha mayda o‘zgarishlar
- Ustuvor javob

Server va domen to‘lovi bunga kirmaydi: ular sizning nomingizda va siz to‘g‘ridan-to‘g‘ri to‘laysiz.

Ko‘p beriladigan savollar

Bot, sayt va domen kimniki bo‘ladi?
Sizniki. Domen, server, bot va to‘lov hisoblari sizning nomingizga ochiladi. Ishga tushgach kod ham topshiriladi.

Click yoki Payme ulash qancha vaqt oladi?
Click va Payme bilan shartnomani siz tuzasiz, buning uchun YaTT yoki MChJ kerak. Ulash muddati ularga bog‘liq, shuning uchun hujjatlarni birinchi kundanoq boshlaymiz.

Bir yildan keyin nima bo‘ladi?
Tizim ishlashda davom etadi. Xohlasangiz, texnik xizmatni ulaysiz yoki tuzatishlarni soatbay buyurtma qilasiz.

Mahsulot va narxlarni o‘zim o‘zgartira olamanmi?
Ha, admin paneldan: mahsulotlar, narxlar, rasmlar, qoldiq va buyurtma holatlari.

Keyin boshqa dasturchi bilan ishlasam bo‘ladimi?
Ha, kod va kirish huquqlari sizda. Faqat boshqa dasturchi o‘zgartirgan qismlarga kafolat amal qilmaydi.

Ombor dasturim boshqacha bo‘lsa-chi?
Dasturda API bo‘lsa, ulash mumkin. Avval ko‘rib chiqamiz va aniq narx aytamiz. 1C bo‘lsa, avval qisqa audit o‘tkazamiz.

Tizimni jonli ko‘ring

Telegramda yozing: demo ko‘rsatamiz va savollaringizga javob beramiz.

@abduvosiqovv_a

Bu hujjat hamkorlik tartibini tushuntiradi va ommaviy oferta emas. Aniq shartlar tomonlar imzolagan shartnomada belgilanadi.